

**COURSE :
MONEY AND BANKS**

LECTURE №1

**INTRODUCTION TO THE
COURSE.
EMERGENCE, NEED AND
FUNCTIONS OF MONEY**

Lecturer: PhD Kh. Rakhimova



**FAN:
PUL VA BANKLAR**

MA'RUZA №1

**FANGA KIRISH.
PULNING PAYDO BO'LISHI,
ZARURLIGI VA
FUNKSIYALARI**

Maruzachi: PhD Kh. Rakhimova

REJA:



01

ITEM 01

Fanga kirish. Fanning maqsad va vazifalari

02

ITEM 02

Pulning zarurligi va paydo bo'lishi

03

ITEM 03

Pulning funktsiyalari

04

ITEM 04

Pul shakllari va turlarining evolyusiyasi

PUL VA BANKLAR FANI

iqtisodiy nazariyaning bir qismi sifatida iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni pul va banklar kategoriyalar ishtirokida o'rganadi.

Fanning maqsadi:

- Fanning maqsadi talabalarga pul va banklar sohasidagi bilimlarning nazariy asoslarini, pul va bank ishi doirasidagi asosiy tushuncha va kategoriyalarni, iqtisodiy qonunlar va printsiplarni o'rgatish hamda amaliyotda ularni qo'llay olish xususiyatini shakllantirishdan iborat.



«PUL VA BANKLAR» FANI METODLARI



Pul va banklar fani oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- Pulning mohiyati va pul muomalasi qonuniyatlarini o'rganish.
- Pul aylanmasi va pul tizimi to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarni hosil qilish.
- Kreditning mohiyati va prinsiplarini o'rganish.
- Kreditning shakllari va turlari hususida to'liq ma'lumotlarni berish.
- Bank tizimini mohiyati hususidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish.

Fanining predmeti

- Pul va banklar **fanining predmeti** bo'lib, pullar va pul muomalasi, kredit va kredit munosabatlari, banklar va bank tizimi bilan bog'liq bo'lgan pul-kredit munosabatlari hisoblanadi.



Pul va banklar fanini alohida fan sifatida o'rganishning zarurligi



Pul va banklar uzoq muddatli ijtimoiy rivojlanishning natijasi bo'lib, zamonaviy sivilizatsiyaning muhim ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning amal qilishi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash imkonini beradi.

Source: https://www.flaticon.com/ru/free-icon/capital-venture_2590464



“Pul va banklar” kursining ahamiyati

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitda tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash munosabatlari pul, kredit va banklarning ishtirokisiz amalga oshmasligi barchamizga ma'lum. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyatning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan bo'lib, ushbu faoliyatning asosini ham pul, kredit va bank tizimi bilan bog'liq qator munosabatlar tashkil etadi.

Bu o'z – o'zidan, keyingi yillarda, mamlakatimiz o'quv yurtlarida iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda “Pul va banklar” kursining ahamiyatini keskin oshirmoqda.



Pul va banklar faning maqsadi

- Pulning zarurligi, mohiyati, pul nazariyalari va pul aylanmasi, kredit va kredit munosabatlari, banklar va bank tizimi, valyutalarning xalqaro miqyosdagi harakatini tashkil qilish bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.



Pul va banklar fani oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- Pulning mohiyati va pul muomalasi qonuniyatlarini o'rganish.
- Pul aylanmasi va pul tizimi to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarni hosil qilish.
- Kreditning mohiyati va prinsiplarini o'rganish.
- Kreditning shakllari va turlari hususida to'liq ma'lumotlarni berish.
- Bank tizimini mohiyati hususidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish.
- Pul va banklar fanining predmeti bo'lib, pullar va pul muomalasi, kredit va kredit munosabatlari, banklar va bank tizimi bilan bog'liq bo'lgan pul-kredit munosabatlari hisoblanadi.



Pul mohiyati quyidagicha ifodalanadi:

Pul barcha tovarlar qiymatini o'zida ifoda etuvchi ekvivalentdir.

“**Pul** – bu umumiy ekvivalent sifatida qo'llaniladigan universal tovarning alohida turi bo'lib, boshqa barcha tovarlarning qiymati u orqali ifodalanadi”

“**Pul** – bu boshqa ne'matlarning qimmatini o'lchash vositasi (umumiy ekvivalent) Yoki ayirboshlashda hisob-kitoblarni amalga oshirish vositasi (ayirboshlash vositasi) funksiyalarini bajaruvchi ne'matdir” [\[1\]](#)

“**Pul** — bu maxsus tovar, umumiy ekvivalent bylib, abstrakt harajatlarni uzida aks ettiradi va tovar xujaligidagi ijtimoiy ishlab chikarish munosabatlarni ifodalaydi” [\[1\]](#)



Pul paydo bo'lish sharti:

- Pul tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning uzoq vaqt rivojlanishi natijasida vujudga keldi.
- Faqat tovar ishlab chiqarish bor joyda pul kerak, yakka odamga pulning keragi yo'q.
- Pulni tovar ayirboshlashning o'zi yaratadi.

Birinchi yirik mehnat taqsimoti, ya'ni chorvachilikdan dehqonchilikning ajralib chiqishi va shu munosabat bilan tovar xo'jaligining rivojlanishi tufayli mahsulot qiymatining ifodasi bo'lgan **PULNI** keltirib chiqardi.

Ishlab chiqarishning rivojlanishi, tovar turlarining ko'payishi almashuv jarayonining yanada rivojlanishini taqozo qildi.



Birinchi qog'oz pul 1260 yil
Xitoyda paydo bo'lgan.


Iqtisodiy adabiyotlarda pulning kelib chiqshi
masalasida 2 xil yondashuv mavjud [3]:

Subyektiv yondashuvga
ko'ra pul odamlar o'rtasidagi
kelishuvga asosan
ayirboshlash instrumenti
sifatida paydo bo'lgan.



Subyektiv
(ratsionalistik)
yondashuv

Obyektiv
(evolyutsion)
yondashuv



Obyektiv yondashuv qiymat
shakllari evolyutsiyasiga asoslanadi.

Birinchi marta obyektiv yondashuvni asoslab bergan olim
Karl Marksdir.

Taniqli olim **Pol Samuelson** ham
ushbu yondashuvni himoya qilgan.



Obyektiv yondashuvga ko'ra pulning paydo bo'lishi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- Tovarlar ishlab chiqarish hajmining o'sishi.
- Ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi.
- Real ayirboshlash instrumenti bo'lgan ekvivalentga bo'lgan talabning paydo bo'lishi.



Pulning yuzaga chiqishiga bevosita quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan [\[3\]](#)

Uzoq qadimdan ishlab chiqarishning va tovar munosabatlarini rivojlanishi natijasida pul yuzaga chiqa boshlagan:

1. Jamiyatda mehnat taqsimotini hamda mahsulotlar almashuvini yuzaga chiqishi.
- 2. Natural xo'jalikdan asta —sekin tovarlarni ishlab chiqarish va ularni ayirboshlashga o'ta boshlashi;
- 3. Tovar mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va mol —mulk jihatidan mustaqil mulkdorlarning shakllanib borishi;
- 4. Ayirboshlash jarayonida ekvivalentligi (moslik) yuzaga chiqishi va unga rioya etila borishligi.



PUL -

Pulning mohiyatiga tarif

bu mahsus
tovar, umumiy
ekvivalent
bo'lib

abstrak mehnat
xarajatlarini
o'zida aks ettiradi

tovar xo'jaligidagi
ijtimoiy ishlab
chiqarish
munosabatlarini
ifodalaydi



Pul tushunchasi va uning kelib chikish tarixi

Pul

Pul – bu umumiy ekvivalent sifatida qo'llaniladigan universal tovarning alohida turi bo'lib, boshqa tovarlarning qiymati u orqali ifodalanadi. Pul bu mutloq likvidlikka ega bo'lgan ne'matdir.



Pulning kelib chikish tarixi

Tovar ishlab chiqarish rivojlanishining ilk bosqichlarida pul ishtirokisiz ayriboshlash (barter) usulidan foydalanilgan. Eramizdan avvalgi 2-3 ming yil avval umumiy pul ekvivalentlaridan foydalanilgan. Turli millatlarda turli xil pul ekvivalentlari ishtirok etgan.



Tovar ayriboshlash munosabatlari ular paydo bo'lgan vaqtdan boshlab, bozorda umumiy ekvivalent bo'la oladigan, xamma uchun maqbul qulay tovarni izlashni ob'ektiv ravishda taqozo etgan. Ma'lumki turli davrlarda metallar –bronz, temir, mis, kumush, oltin ana shunday ekvivalent bo'lgan.



Source: <https://autogear.ru/article/144/994/chtotakoe-kitayskaya-kniga-peremen/>



Source: <https://eurogold.lv/ru/catalog/4754.html>



Dastlabki metal pullarni kelib chikishi [1]



Source: <https://www.istockphoto.com/ru/>

Dastlabki metal pullar eramizdan oldingi VII asrda Xitoyda va O'rta yer dengizi davlatlari Lidiya va Eginada paydo bo'lgan. Dastlab metall pullar har xil shaklda, keyinchalik esa ishlab chiqarish va foydalanish uchun dumaloq shaklda zarb qilingan.

Dastlab metall pullar har xil shaklda, keyinchalik esa ishlab chiqarish va foydalanish uchun dumaloq shaklda zarb qilingan

- Muomalaga kirgan pullar “MONETA” (tanga) degan nomni Yunonaning nomlaridan biri (Juno Moneta-Ogohlantiruvchi Yunona) sharafiga qabul qilingan bo’lib, uning Rimdagi Kapitoliy tepaligidagi Yunona saroyida ushbu antik davlatning yangi zarbxonasi joylashgan bo’lgan.



Juno Moneta

Zoltán @szaljosan69





Photo: Fritz Rudolf Künker - Lübke & Wiedemann

- 1816 yildan 1900 yilgacha mamlakatlarning ko'pchiligi oltin yoki oltin tanga standartiga o'tganlar. Bu standartda mamlakatning asosiy pul birligi muomalada bo'ladigan oltin tangada zarb qilingan. Uning nominali uning tarkibidagi oltin qiymatiga teng bulgan. Kumush va mis tangalar esa mayda pul rolini bajargan.



Ilk qog'oz pullarni

- Qog'oz pullar-to'laqonli pullarni taqdim etuvchi pul belgilaridir [6].



<https://samopoznanie.ru/schools/konfucianstvo/>



<https://ru.wikipedia.org/wiki/>



<https://ppt-online.org/790101>

Source:

Ilk qog'oz pullar eramizning XII asrida Xitoyda.

Evropa va Amerikada esa-faqat XVII-XVIII asrlarda paydo bo'ldi.

Rossiyada qog'oz pullar 1769 yilda joriy etilgan.



25 рублей
1769 г.



10 рублей
1854 г.



Iqtisodiy adabiyotlarda pulning funksiyalari xususida 2 ilmiy maktab olimlarining qarashlari mavjud [7]:

- Yevropa maktabi.
- Amerika maktabi.



Yevropa pulning 5 funksiyasi xususida xulosasi [6]

Qiymat o'lchovi funksiyasi. Barcha tovarlar va xizmtalar qiymati umumiy ekvivalent bo'lgan pulda o'lchanadi. Hozirgi davrda oltinning almashilmaydigan qog'oz va kredit pullari bu funksiyani bajarmoqda.

Qog'oz pul Moliya vazirligi yoki Markaziy banklar tomonidan muomalaga chiqariladi. Masalan: AQShda 1 dollardan 5 dollargacha bo'lgan kupyuralar AQSh G'aznachiligi tomonidan muomalaga chiqariladi. AQShda Moliya vazirligi yo'q. Bu vazifani AQSh G'aznachiligi bajaradi.

Angliyada tangalar Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqariladi. Kredit pullar bu banknotalar bo'lib, Markaziy banklar tomonidan muomalaga chiqariladi.

O'zbekistonda muomaladagi barcha pul birliklari banknotalar hisoblanadi va ular O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki aktivlari bilan ta'minlanadi.



Muomala vositasi funksiyasi

- Bunda tovar-pul yoki pul-tovar operatsiyasi bir vaqtning o'zida yuz beradi, ya'ni tovarlar nasiyaga sotilmaydi.

To'lov vositasi funksiyasi

- Bunda tovarlar to'lov muddati kechiktirilib sotiladi. Shuningdek, kredit va moliya munosabatlaridagi to'lovlar ham pulning to'lov vositasi funksiyasiga kiradi. Masalan: kredit olgan mijoz bankka kreditning asosiy qarz summasi va foizlarini qaytaradi. Bundan tashqari korxonalar soliq to'lovlarini amalga oshiradi, turli xildagi jarimalar to'lovlarini to'laydilar.



Jamg'arish vositasi funksiyasi

- Bunda naqd va naqd bo'lmagan pullar jamg'ariladi.
- Aholi, korxonalar o'zlarining bo'sh pul mablag'larini banklarga muddatli yoki jamg'arma depozit hisob raqamalarida saqlaydilar.
- Aholining qo'lida turgan har qanday pul to ishlatilgunga qadar jamg'arish vositasi funksiyasini bajaradi.
- Korxonalarining joriy hisob raqamlaridagi pul mablag'lari ham to ishlatilgunga qadar jamg'arish vositasi funksiyasini bajaradi.



Jahon puli funksiyasi



- Jahon puli funksiyasi jahon bozorlarida kotirovka ya'ni oldi-sotdi qilinadigan valyutalar bajaradi.
- Jaxon pullar funksiyasi barcha valyutalar bajaraolmaydi
- Xalqaro hisob-kitob banki ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro valyuta bozorlarida konversion operatsiyalarning 90% ortiq qismi 6 ta valyutada amalga oshirilmoqda.

Bu valyutalar xalqaro rezerv valyutasi maqomiga ega. Bu maqomni Xalqaro Vlayuta Fondi beradi. Hozirda 6 ta valyuta xalqaro rezerv valyutasi hisoblanadi:

- USD (AQSh dollari).
- EUR (yevro).
- JPY (Yaponiya iyenasi).
- GBP (Buyuk Britaniya funt-sterlingi).
- ChF (Shvetsariya franki).
- CHY (Xitoy yuani)

Source: <https://www.istockphoto.com/ru/portfolio/TibyCherian?mediatype=photography>



Amerika ilmiy maktabi pulning 3 ta funksiyasini tan oladi:

1

- **Hisob funksiyasi.** Amerika ilmiy maktabi vakillari tovarlar va pullar mehnat konsepsiyasini tan olmaydilar. Shuning uchun ular asosiy e'tiborini barcha pullik operatsiyalarning buxgalteriya hisobiga qaratadilar.

2

- **Ayirboshlash funksiyasi.**
- Amerika ilmiy maktabi vakillari pulning to'lov va muomala vositasi funksiyalarini birlashtirganlar.

3

- **Jamg'arish vositasi funksiyasi.**
- Pul funksiyalarini to'liq namoyon etish uchun iqtisodiyotdagi real va moliya sektorlarini barqaror rivojlanishini ta'minlash lozim.



Dastlabki Pulning turlari:



- Jamiyat va davlat aloqalari taraqqiyotining dastlabki rivojlanish davriga tabiiy tovar pullar davlatlar orasida quyidagicha taqsimlangan:
 1. chig'anoqlar (Polynesia va Hindiston);
 2. turli xil hayvon terisi (Qadimgi Rossiya);
 3. tabiiy tuz (tabiiy tuzdan tayyorlangan g'ishtdek keladigan qoliplardagi tuz) (Efiopiya)
 4. temir ketmonlar (Sudan)
 5. chig'anoqdan bo'lgan marjon (Janubiy Amerika hindulari)
 6. mis va bronza (Qadimiy Rim)

Source: <https://en.ppt-online.org/731204>

Zamonaviy pullar:



- naqd pullar
- naqsiz pullar

Source: <https://lenta.ru/articles/2021/11/10/attitude/>



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахманова, М.М. (2021). Деньги и банки. Учебное пособие. Издательство. Иктисодиёт.
2. Abdullaeva, Sh.Z. (2000). Pul, kredit va banklar. O'g'uv qo'llanma. Moliya nashriyoti.
3. Лаврушин, О.И., и др. (2010). Деньги, кредит, банки. Учебник. КНОРУС.
4. Меркулова, И.В., & Лукьянова, А.Ю. (2010). Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. КНОРУС.
5. Omonov, A.A., & Ko'raliev, T.M. (2012). Pul, kredit va banklar. Darslik. Soliq akademiyasi. Toshkent moliya institute. Moliya.
6. Rashidov O.YU., Toymuhamedov I.R., Alimov I.I., & Tojiev R.R. (2009). Pul, kredit va banklar. Darslik. TDIU.
7. Shodmonov, Sh.Sh., Yakhshiyeva, M.T., & Yusupov, R.A. (2013). Pul nazariyasi: O'quv qo'llanma. Tashkent State University of Economics.
8. Юзвович Л. И., Марамыгин М. С., & Князева Е. Г. (2019). Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник. Изд-во Урал. федер. ун-та.
9. Lex.uz. [01.03.2023]. Retrieved from <https://lex.uz>
10. Центральный Банк Республики Узбекистан. [01.03.2023]. Retrieved from <https://cbu.uz>



E”TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!!!

